



Professional ta'lif o'quvchisining ish daftari “100% paxta?”

Qo'shimcha didaktik material

Muallif: Magdalena Froydenshuss
magdalena@panphotos.org

Ish versiyasi, holati: 20-dekabr 2015-y.

Maqsadli guruh: 1-o'quv yili
Soha: tovarshunoslik va tovarlarni sotish
Asosiy mavzular: paxta ishlab chiqarish, barqaror rivojlanish

Hurmatli o'qituvchi!

(MUQADDIMA)

UMUMIY O'QUV MAQSADLARI

Anglash: barqaror rivojlanish tushunchasini tovarshunoslikka qo'llash qobiliyati; barqaror rivojlanish istiqbollarini joriy etish va ularni boshqa mavzularga o'tkazish qobiliyati; ijtimoiy tarkibiy qism va global jihatlarni ham o'z ichiga olgan barqaror rivojlanishning murakkab tushunchasini tushunish.

Baholash: turli muvofiqlik belgilari va sifat xususiyatlarini tasniflash qobiliyatini shakllantirish; umuman barqaror rivojlanishning ahamiyatini, xususan, o'z mehnat sohasida ijtimoiy va ekologik standartlarni tushunish.

Harakatlar: barqaror rivojlanish bo'yicha o'z-o'zini aks ettirish, mavzu/istiqbol keyinchalik (masalan, loyihada) mavjud bo'lib qolmoqda, tovarshunoslik/sotish sohasida professional harakatlar imkoniyatlari ishlab chiqilgan.

UMUMIY KO'RSATMALAR

VAQT

Umumiy davomiyligi: 16 x 45 daqiqa (8 dars juftligi).

Maslahat: o'zingiz tanlang! Sinov bosqichi shuni ko'rsatdiki, ish daftarini to'liq ishlab chiqish uchun kamida sakkizta dars juftligi kerak. Agar vaqtingiz kamroq bo'lsa yoki u yoki bu mavzu bloki o'quv rejangizga boshqa vaqtida yaxshiroq mos kelsa, ish daftarini taklif sifatida ko'ring va kerak bo'l-ganda foydalaning.


IMLO

~~Wir verwenden in diesem didaktischen Begleitmaterial den Unterstrich. Mit Schüler_innen sind alle gemeint, ob sie sich als Männer, Frauen oder Trans Personen verstehen. Der Unterstrich symbolisiert Identitäten auch jenseits von Zweigeschlechtlichkeit.~~¹

Hali ham tez-tez ishlatiladigan "rivojlanayotgan mamlakatlar" atamasi o'rniغا biz "**Global Janub**" va "**Global Shimol**" haqida gapiramiz. Ushbu tushunchalarni geografik emas, balki siyosiy belgilar sifatida tushunish kerak. Shunga ko'ra, "rivojlanish" atamasi ishlatilmaydi, chunki u yevrosentrik va ko'pincha mustamlakachilik tafakkuri bilan bog'liq.

O'ZINI OQLAGAN AMALIYOTLAR

Berlin shahri Kroysberg tumanidagi Savdo sohasida professional ta'lim markazida (OSZ Handel I) ish daftarini ikkita sinfdan sinovdan o'tkazish bosqichida o'qituvchilar natijalarni har bir bo'limdan keyin talabalar bilan suhbat shaklida umumlashtirdilar. Sizning qo'lingizdagи ish daftarida "tvit katakchalari" shunday natijalarni qisqa tvit xabarları shaklida yozib olish va keyingi darsda ularni takrorlash va mustahkamlash uchun imkon beradi.



Ish daftaridan individual tematik bloklarni vizualizatsiya qilish amaliyoti butun sinf uchun juda foydali bo'ldi. Guruh ishining natijalari yoki barcha o'quvchilar uchun ish topshiriqlari haqida bo'ladimi, ayniqsa material sinf uchun yangi bo'lsa, devorga proyektsiyalash yoki doskada taqdim etish samarali yordam sifatida xizmat qildi.

¹ In der Übersetzung sollte dieser Absatz gestrichen werden. – d.Ü.

1-qism: PAXTA HAQIDA UMUMIY MA'LUMOT

Maqaddima „Aziz professional ta'lim o'quvchisi“²

Maqsad: kirish, datslabki tanishish.

Vaqt: 10 daqiqa matnni o'qib chiqish uchun, bиргаликдаги мухокама (10-15 daqiqa).

Ish daftarini ochganingizdan so'ng siz va o'quvchilaringiz avval muqaddimani, uning ostida esa paxtaning ba'zi muhim xususiyatlarini topasiz. Ular birinchi suhabat uchun asos yaratishi mumkin va, albatta, o'quv rejasiga muvofiq boshqa jihatlar bilan to'ldirilishi mumkin.

„Barqaror rivojlanish“, bu nima?

Maqsad: atamalarni tushuntirish, barqaror rivojlanishning asosiy tarkibiy qismlarini mustaqil o'rganish.

Vaqt: 30 - 45 daqiqa.

Ushbu tematik blokda, muqova varag'ining ichki tarafida, birinchi marta ushbu ish daftarining maqsad mavzusi taqdim etiladi. Ushbu o'quv materialining tuzilishini barqaror rivojlanish g'oyasiga asoslanadi. Bu yerda "tarmoqli o'rganishni" kuchaytirishga mo'ljallangan fanlararo yondashuv ham namoyon bo'ladi.

Paxta yetishtiruvchi mamlakatlar

Maqsad: paxta yetishtirishning geografik va iqlimiyligi xususiyatlarini tushuntirish, paxta yetishtiriladigan mintaqalar va yetishtirish hajmlarini hamda paxtaning asosiy navlarini taqdim etish.

Vaqt: 30 daqiqa.

Dunyo mamlakatlari xaritasi ongli ravishda Petersning proyektsiyasida tanlangan. Uning g'ayrioddiy ko'rinishi dunyo xaritalari bizning fikrlashimizni yo'naltirishlarini ko'rsatadi. Umuman olganda, ular bizning e'tiborimizni Global Shimoliy mamlakatlarga qaratadi, Global Janubiy (ilgari: "rivojlanayotgan mamlakatlar") esa xuddi siyosat va iqtisodiyotda bo'lgani kabi yo'l chetiga chiqarib qo'yiladi.

2-qism: BARQAROR RIVOJLANISHGA SINCHIKLAB QARAGANDA

Diqqat markazida: suv

Maqsad: ushbu tematik blokda "an'anaviy" paxta yetishtirishda sho'rланish, cho'llанish va umumiyligi tanqisligi muammolari muhokama qilinadi. Paxta yetishtiruvchi ikki muhim davlat (Hindiston, O'zbekiston) misolida suvni ortiqcha iste'mol qilish mavzusi yoritiladi, diqqat markazida suv turadi.

Vaqt: 50 daqiqa.

Vazifa individual ravishda yoki guruhda o'zaro aloqalarni izlash, xususan, mamlakatlar bo'yicha alohida bayonotlarni taqsimlash va birlashtirish orqali amalgalash oshiriladi. Vazifa bajarilganidan so'ng siz sug'orish usulini tanlash nimaga bog'liqligi (geografik sharoitlar, moliyaviy va texnologik imkoniyatlar) haqida sinfda umumiyligi munozarani o'tkazishingiz mumkin. Bundan tashqari, suv sarfini ko'rgazmali namoyish etish uchun siz turli xil to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda suv xarajatlari va "virtual" suv miqdori haqida ma'lumotlarni internetda qidirishingiz yoki taqdim e-

² Hier wird Bezug genommen auf das Vorwort, das auftragsgemäß nicht übersetzt wurde. - d.Ü.

tishingiz mumkin.

Diqqat markazida: pestitsidlar

Maqsad: paxta yetishtirishda pestitsidlardan foydalanish muammolari, ijtimoiy va ekologik muammolar, sog'liq uchun tahdidlar haqida ma'lumot berish.

Vaqt: 45 daqiqa.

Diqqat markazida: mehnat sharoitlari

Maqsad: o'z umidlari va talablarini aks ettirish; Global Shimol va Global Janubdag'i mehnat sharoitlari o'rtasidagi munosabatlarni aks ettirish.

Vaqt: 30 - 60 daqiqa.

Ushbu tematik blok shaxsiy tajriba va atrof-muhit tahlil qilinadi. Professional ta'lif o'quvchilariga yaxshi hayot haqidagi o'z g'oyalari, shuningdek, hamkasblarining tegishli g'oyalari haqida o'yash imkoniyati beriladi.

Guruhning qiziqishiga qarab, ushbu mavzu bo'yicha xulosalar sinfda natijalarni taqdim etish orqali birgalikda amalga oshirilishi mumkin. Shaxsiy vaziyat barqaror rivojlanishning ijtimoiy tarkibiy qismi ustida ishlash uchun boshlang'ich nuqta bo'lib xizmat qiladi.

Diqqat markazida: bolalar mehnati

Maqsad: paxta yetishtirishda bolalar mehnati to'g'risida axborot berish; Germaniya bilan o'zaro aloqalarni aniqlash.

Vaqt: 30 - 45 daqiqa.

Bolalar mehnati nizoli mavzu: bir tomonidan, Xalqaro mehnat tashkiloti normalari mutlaqo aniq. Ular bolalar mehnatini taqiqlaydi. Boshqa tomonidan, ishlaydigan bolalar bir necha yillardan beri birlashib, o'zlarining tashkilotlarini tuzib kelmoqdalar va bolalar mehnatini taqiqlashni emas, balki ishlaydigan bolalarning huquqlarini tan olish va muntazam himoya qilishni talab qilmoqdalar. Ushbu muammo risolada chuqur ko'rib chiqilmaydi. Biroq, u inson huquqlari va mehnat huquqi haqidagi munozarada dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

Qo'shimcha materiallar:

- ⇒ O'zbekistondagi vaziyat haqida Youtube-da "**Fakt**" telejurnalining videosini topishingiz mumkin, uni tomosha qilishni tavsiya etamiz: "O'zbekistonda paxta ishlab chiqarishda bolalar mehnati" www.youtube.com/watch?v=1EO2a2VJA5k
Davomiyligi: 7 daqiqa³

3-qism: ALTERNATIVALAR?

Bular alternativa bo'lishi mumkinmi?

Maqsad: paxta yetishtirishda turli muqobil loyihibalar bilan tanishish.

Vaqt: 45 daqiqa.

³ VORSICHT!!! Überholte Information! – d.Ü.

Kerakli vaqt, boshqa ko'plab tematik bloklarda bo'lgani kabi, guruhda birgalikda natijalarni umumlashtirish jarayonining intensivlik darajasiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ish topshiriqlari shunday tuzilganki, umumlashtirish bilan birgalikda amalga oshirilishi mumkin va qiziqarli bo'ladi, ammo bu qism mutlaqo zarur deb hisoblanmaydi. Vazifani bajarish uchun guruh bilan birgalikda taqdim etilgan to'rtta yondashuvni ularning barqarorligi nuqtai nazaridan qanday baholash kerakligi masalasini ko'rib chiqish tavsija etiladi.

"Axborot doirasi"ni o'qishda, shuni inobatga olish kerakki, har bir rang alohida yondashuvni anglatadi. Ichki doirada tashabbusning nomi va "ichkaridan tashqariga" - uning batafsил tavsifi ko'rsatilgan.

Paxta & Co

Maqsad: "barqarorlikka" da vo qiladigan korxonani mustaqil tahlil qilish / baholash.

Vaqt: 25 - 45 daqiqa.

Aqliy xarita (mindmap) yordamida g'oyalar va ma'lumotlarni osongina tartibga keltirish mumkin. Xarita daraxt usuli asosida yaratilgan: asosiy ma'lumotlar asosiy shoxda, quyidagi shoxlarda esa asosiy ma'lumotlarga bo'ysunadigan batafsil ma'lumotlar/g'oyalar ko'rsatilgan. "Mezonlar"ga oid birinchi uchta shox, barqaror rivojlanishning turli tarkibiy qismlarini eslatadi va o'ziga xos nazorat "savollar ro'yxati" (tekshirish ro'yxati) sifatida ishlatalishi mumkin.

Ishning birinchi bosqichida siz barqaror rivojlanish siyosatini amalga oshirayotgan korxonalar ro'yxatini birgalikda tuzishingiz mumkin. Ikkinci bosqichda o'quvchilar tanlangan korxonaning "barqarorligi" to'g'risida ma'lumot izlaydilar va ish varag'iga "tarafdar" va "qarshi" dalillarni kiritadilar. Agar ma'lumot qidirish mavzulari alohida tanlanmasdan, sinfda/guruhda taqsimlansa, unda turli xil jihatlarning keng doirasi qamrab olinishi mumkin. Shundan so'ng siz natijalar taqdim etilishi yoki ular bilan almashish mumkin.

Ichida nima borligini qanday bilsam bo'ladi? Sertifikatsiya

Maqsad: sertifikatlashtirish mezonlarini mustaqil ishlab chiqish.

Vaqt: 20 - 30 daqiqa.

Ushbu vazifa ba'zan oraliq natijalarini umumlashtirishdir: belgilangan muammolar bilan bog'liq holda oldin muhokama qilingan material tahlil qilinadi va buning natijasida qanday talablar paydo bo'lishi haqida fikrlar muhokama qilinadi. Shu bilan birga, ushbu topshiriq professional ta'lif o'quvchilariga to'qimachilik mahsulotlariga o'zlarining talablarini shakllantirishga va ularni barqarorlik muhokamasining jihatlarini hisobga olgan holda aks ettirishga imkon beradi.

Amalda tekshirish - shaxsiy garderobga yoki o'z korxonasining mahsulotlariga qarash sifatida - professional ta'lif o'quvchilariga keyingi dars uchun uy vazifasi sifatida berilishi mumkin.

Muvofiqlik belgilari dunyosining xilma-xilligi...

Maqsad: muvofiqlik belgilari bilan tanishish, muvofiqlik belgilari va iste'molchi ma'lumotlari haqida xabardorlikni oshirish, mezonlarni taqqoslash.

Vaqt: 40 daqiqa.

Ushbu mashqni internet bilan ishslash orqali kengaytirish mumkin. Quyidagi veb-saytlarda tegishli

sertifikatlar va muvofiqlik belgilari haqida ko'proq ma'lumot olish mumkin.

Javoblar

Logotip Mezon	GOTS	IVN Naturtextil BEST	Oekotex 100+	bluesign	Textile Exchange 100
Ijtimoiy barqarorlik	o'rtacha	ha (kengaytirsa bo'ladi)	minimal talablar	o'rtacha	yo'q
Mahsulot tarkibiga qo'yiladigan talablar	ha	ha	yo'q	ha	ha
Nazorat qilinadigan organik dehqonchilik	ha (70% organik ravishda yetishtirilgan tola)	ha (100% organik ravishda yetishtirilgan tola)	yo'q	yo'q	ha (kamida 95%)
Atrof-muhit va sog'liq uchun xavfli moddalar va jarayonlardan foydalananishi cheklash	ha	yuqori	o'rtacha	o'rtacha	yo'q
Shaffoflik	ha	ha	qisman	qisman	ha
Butun ishlab chiqarish zanjirini qamrab oladi	ha	ha	ha	ha	ha

Muvofiqlik belgilari va firmalar

Organik ravishda yetishtirilgan paxta bozori o'sib bormoqda. Bu yirik to'qimachilik tarmoqlari tomonidan taqdim etilgan assortimentda ham o'z aksini topmoqda. 2010-yildan beri H&M va C&A sertifikatlangan organik to'qimachilik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar o'ntaligiga kiradi (2014: 1) C&A, 2) H&M, 3) Tchibo, 4) Decathlon, 5) Nike, 6) Carrefour, 7) Target, 8) Lindex, 9) Inditex va 10) Puma; manba: Textile Exchange).

Ushbu segmentdagi savdo markalarining (brendlarning) rivojlanish tendensiyalari bo'yicha qiziqarli jadvalni quyidagi veb-saytda topish mumkin: <http://aboutorganiccotton.org/stats/#leaguetable> (ingliz tilida).

Odatda, bu firmalar mavjud tuzilmalardan foydalanishadi. Ular sertifikatlash tashabbuslarining a'zolari bo'lib, ko'pincha mazkur tashabbuslar doirasida atrof-muhit va/yoki ijtimoiy standartlarga javob beradigan o'z mahsulot turlarini ishlab chiqishadi. Masalan, H&M "Better Cotton Initiative" tashabbusing hamda "Textile Exchange" a'zosi. H&M tarkibida 50 dan 100% gacha bo'lgan organik paxta mahsulotlari, shuningdek qayta ishlangan paxta to'qimachilik mahsulotlari mavjud. "Yashil moda" firmalari faoliyatining tavsiyini quyidagi veb-saytda topish mumkin: <http://www.cirromero.de/gruenemode-labels/>.

PAXTAGA ALTERNATIVALAR?

Kanop, viskoza & Co

Maqsad: tabiiy tola/to'qimachilik mahsulotlarining boshqa turlari bilan tanishish.

Vaqt: 15 daqiqa.

Ish daftaridagi tasvirlar haqiqiy namunalar bilan to'ldirilishi mumkin, agar mavjud bo'lса.

Barqaror rivojlanish – taqqos

Maqsad: har xil turdagи tolalarni taqqoslash; taqqoslashda baholash; tovarlarni sotish uchun dalil-larni to'plash.

Vaqt: 45-60 daqiqa.

Bu yerda risola paxta bo'yicha o'quv moduli va o'quv rejasiga ko'ra ko'pincha boshqa joylarda yori-tiladigan mavzular (tolaning boshqa turlari) o'rtasidagi aloqalarni o'rnatadi. Bunday yondashuv sizga mazkur boshqa turdagи tolalarga nisbatan barqaror rivojlanish mavzusi bilan tanishtirish yoki bunday mavzu mavjudligi haqida xabardor qilish imkonini beradi. Shu sababli, bu o'quv mavzulari bir-biriga mos keladi. Siz ham ushbu mavzuga yana darslaringizning boshqa joyida qaytishingiz va undan takrorlashning bir turi sifatida foydalanishingiz mumkin.

Ushbu jadval asosan quyida keltirilgan veb-sayt ma'lumotlariga asoslangan. Bu manbadan sinfda ma'lumot qidirish uchun ham foydalanish mumkin. Veb-sayt turli xil to'qimachilik mahsulotlari/tolalarning "barqarorligi" haqida ma'lumot beradi:

<http://www.ecoprodut.at/youth/pages/Informationen/Textilien/>

Barqaror rivojlanish - xo'sh, endi nima? Xaridorga maslahat

Maqsad: o'tilgan materialni takrorlash va individual ravishda mustahkamlash.

Vaqt: 45 - 60 daqiqa (tanlangan versiyaga qarab).

Bu vazifa o'tilgan materialni umumlashtirish, takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu yerda siz yana asosiy dalillarga qaytishingiz va ularni yakuniy muhokama qilishingiz mumkin. "Sahna"larga tayyorgarlik ko'rish uchun sotuvchilar va xaridorlar avval alohida guruhlarga yig'ilib, u yerda o'z rollarini o'ylab chiqishlari mumkin. Shundan so'ng barcha ishtirokchilar o'zlarining kichik guruhlariga qaytib, u yerda "sahna"larni o'ynashadi.

NATIJALARNI UMUMLASHTIRISH VA XULOSALAR

Ortga va oldinga nazar...

Maqsad: mavzuni individual ravishda umumlashtirish va refleksiya.

Vaqt: 15 daqiqa.

Bu vazifa mavzularni umumlashtirishga qo'shimcha tarzda, individual ravishda umumlashtirish va mustaqil tahlil qilish imkoniyati sifatida ishlab chiqilgan. Agar bu savollar o'qituvchiga va/yoki EPI-

Zga nisbatan qayta aloqa doirasida fikrlar bildirish (baholash) uchun ishlataladigan bo'lsa, bu varadan nuxalar olish va ularni anonim ravishda to'ldirish uchun alohida taqdim etish tavsiya etiladi.

Ish daftarinining orqa tomoni

Maqsad: to'qimachilik mahsulotlarining narxlari shakllanishi to'g'risida qo'shimcha ma'lumot. Vaqt: belgilanmagan.

"An'anaviy" va organik usulda ishlab chiqarilgan paxta narxi to'g'risidagi savol qayta-qayta paydo bo'ladi. Tasvirlangan jinsi shim sizga har bir qism bo'yicha narxning tarkibiy qismlari haqida tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi. Agar qiziqish mavjud bo'lsa, guruh xom ashyoning joriy narxlari va bu sotuvga chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlarining narxiga qanday ta'sir qilishi haqida ma'lumot izlashi mumkin.

WEITERE INFORMATIONEN

Kampagne für Saubere Kleidung
www.saubere-kleidung.de

Mediothek des EPIZ <http://www.epiz-berlin.de/mediothek/>⁴

Izoh:

Ish daftariga Creative Commons litsenziysi amal qiladi. Bu siz ish daftarining mazmunini notijorat maqsadlarda ishlatishingiz, moslashtirishingiz va tarqatishingiz mumkinligini anglatadi. Bunda siz manbaga havola qilishingiz shart.

Creative Commons haqida ko'proq ma'lumot: www.en.creativecommons.org

⁴ Diese Stelle wurde auftragsgemäß nicht übersetzt. Ist das so richtig? - d.Ü